

## TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA RISK-ASOSLI NAZORAT (Yevropa mamlakatlari tajribasi asosida)

**Asatullayev Avazbek Dilshodbek o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Banklarda risklarni  
nazorat qilish departamenti katta mutaxassisi*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishi — risk-asosli nazorat (*Risk-Based Supervision, RBS*) Yevropa mamlakatlari tajribasi asosida tahlil qilinadi. Yevropa Ittifoqida qo'llanilayotgan Yagona nazorat mexanizmi (*SSM*), nazorat tekshiruvi va baholash jarayoni (*SREP*), *ICAAP/ILAAP* jarayonlari hamda Bazel III standartlarini joriy etuvchi *CRR3/CRD6* to'plami ko'rib chiqiladi. Markaziy bankning rasmiy ma'lumotlari asosida O'zbekiston bank tizimining 2022–2026-yillardagi ko'rsatkichlari (aktivlar, kapital, kredit, depozit, *NPL*) tahlil qilinib, Yevropa Ittifoqi bilan qiyoslanadi. Tadqiqot natijasida milliy nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha ettita amaliy taklif ishlab chiqilgan.

**Abstract:** This paper analyses risk-based supervision (*RBS*) as a modern approach to improving the risk management system of commercial banks, drawing on the experience of European countries. It examines the Single Supervisory Mechanism (*SSM*), the Supervisory Review and Evaluation Process (*SREP*), *ICAAP/ILAAP* processes, and the *CRR3/CRD6* package implementing Basel III standards. Based on official data of the Central Bank, the indicators of Uzbekistan's banking system for 2022–2026 (assets, capital, loans, deposits, *NPL*) are analysed and compared with those of the European Union. As a result, seven practical proposals for improving the national supervisory system are developed.

**Kalit so'zlar:** risklarni boshqarish, risk-asosli nazorat (*RBS*), prudensial nazorat, *SREP*, *ICAAP/ILAAP*, Bazel III, *CRR3/CRD6*, muammoli kreditlar (*NPL*), kapital yetarliligi, moliyaviy barqarorlik.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimi jadal islohotlar bosqichida bo'lib, uning barqarorligini ta'minlashda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bank sektorini transformatsiya qilish, davlat ulushini kamaytirish va moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish jarayonlari banklar duch keladigan risklarning ko'lami va murakkabligini sezilarli oshirdi. Jahon moliya bozorlaridagi beqarorlik va cheklangan nazorat resurslari sharoitida an'anaviy, barcha banklarni bir xil intensivlikda tekshirishga asoslangan nazorat usullari o'zini oqlamay qolmoqda. Aynan shu sababdan Yevropa mamlakatlarida risk-asosli nazorat (*Risk-Based Supervision, RBS*) — nazorat resurslarini bankning risk profili va tizimli

ahamiyatiga muvofiq taqsimlashga asoslangan yondashuv — bank nazoratining zamonaviy paradigmasiga aylandi.


Yevropa Ittifoqida bank nazorati 2014-yilda tashkil etilgan Yagona nazorat mexanizmi (SSM) doirasida Yevropa Markaziy banki va milliy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Nazoratning markaziy vositasi — nazorat tekshiruv va baholash jarayoni (SREP) boʻlib, u Yevropa banking organi (EBA) yoʻriqnomalari asosida bankning toʻrt yoʻnalishini — biznes-modeli barqarorligini, ichki boshqaruv va risk-menejment sifatini, kapitalga tahdid soluvchi risklarni hamda likvidlik risklarini yagona metodologiya asosida baholaydi. Baholash natijasida har bir bankka individual ikkinchi ustun talabi (P2R) va kapital koʻrsatmasi (P2G) belgilanadi. Banklar oʻz navbatida ichki kapital (ICAAP) va ichki likvidlik (ILAAP) yetarliligini mustaqil baholab boradi. Bazel III standartlarini joriy etuvchi CRR3/CRD6 toʻplami (2024-yil) “output floor” mexanizmi orqali ichki modellarning haddan tashqari optimistik baholarini cheklab, kapital yetarliligining ishonchliligini yanada oshirdi.

Ushbu tizimning amaliy samarasi Yevropa Ittifoqi bank sektorining yigʻma koʻrsatkichlarida yaqqol namoyon boʻladi: 2025-yilda EI/EEA banklarining birinchi darajali asosiy kapital koeffitsiyenti (CET1) rekord darajaga — 16,3 foizga yetdi, muammoli kreditlar (NPL) ulushi 1,8 foizgacha pasaydi, kapital rentabelligi (ROE) 10,7 foizni, likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR) esa 160,7 foizni tashkil etdi. Deutsche Bank (CET1 — 13,8%), BNP Paribas (12,5%) va Banco Santander (12,8%) kabi tizimli ahamiyatga ega banklarning koʻrsatkichlari SREP minimal talabidan sezilarli yuqori boʻlib, risk-asosli nazorat amalida samarali ishlayotganini tasdiqlaydi.

Oʻzbekiston Markaziy banki Xalqaro valyuta jamgʻarmasi va Jahon banki FSAP dasturi tavsiyalari asosida risk-asosli nazoratga bosqichma-bosqich oʻtmoqda: banklarda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar (3427-sonli nizom, 2023-yil) qabul qilindi hamda Yevropa metodologiyasiga asoslangan risk-asosli nazorat qoʻllanmasi (RBS Manual) ishlab chiqildi. Markaziy bankning rasmiy maʼlumotlari bank tizimining jadal oʻsishini koʻrsatadi: 2022–2026-yillarda bank aktivlari 443,7 trln soʻmdan 924,8 trln soʻmga (2,1 baravar), kredit qoʻyilmalari 326,4 dan 604,0 trln soʻmga (1,9 baravar), jami depozitlar esa 155,5 dan 417,3 trln soʻmga (2,7 baravar) oʻsdi. Sof foyda 7,1 trln soʻmdan 16,5 trln soʻmga yetdi. Kapital yetarliligi 18,3 foiz bilan meʼyordan ancha yuqori, aktivlar rentabelligi (ROA) 1,8 foiz, kapital rentabelligi (ROE) esa 12 foiz atrofida barqaror saqlanmoqda.

Depozitlarning kreditlarga nisbatan tezroq oʻsishi natijasida kreditlarning depozitlarga nisbati (loan-to-deposit, LTD) 2022-yildagi 210 foizdan 2026-yil boshida 145 foizgacha pasaydi — bu moliyalashtirish va likvidlik riskining sezilarli kamayganini bildiradi (1-rasm). Shunga qaramay, ushbu koʻrsatkich Yevropa banklari darajasidan (taxminan 100 foiz) hamon yuqori boʻlib, barqaror ichki moliyalashtirish bazasini yanada mustahkamlash zarurligini koʻrsatadi. Ayni paytda muammoli


kreditlar ulushi 2024-yildagi 3,5 foizdan 2026-yil boshida 4,3 foizgacha ko'tarilib, aktivlar sifati bo'yicha bosim qaytayotganini aks ettiradi.



### 1-rasm. O'zbekiston: kredit/depozit nisbati (LTD) va NPL dinamikasi (2022–2026)

Manba: Markaziy bank rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston bank tizimlarining asosiy ko'rsatkichlarini qiyoslash ikki muhim xulosaga olib keladi (2-rasm). Bir tomondan, O'zbekiston kapital yetarliligi va rentabellik bo'yicha Yevropa darajasiga yaqinlashgan: umumiy CAR ko'rsatkichi (18,3%) hatto EI o'rtacha darajasidan yuqori. Boshqa tomondan, aktivlar sifati bo'yicha jiddiy farq saqlanmoqda: NPL ulushi Yevropadagidan ikki baravardan ko'proq yuqori, IFRS 9 bo'yicha baholaganda esa bu farq yanada kattalashadi — 2023-yil holatiga tartibga soluvchi NPL 4,2 foiz bo'lgani holda, IFRS bo'yicha uchinchi bosqich (Stage 3) kreditlar 7,8 foizni tashkil etgan. Bu muammoli kreditlarni tan olish metodologiyasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi.



### 2-rasm. Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston bank tizimi asosiy ko'rsatkichlari (2025)

Manba: EBA va Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Eng katta tafovut esa institutsional-metodologik darajada kuzatiladi. Yevropada SREP, proporsionallik tamoyili, ICAAP/ILAAP, individual kapital talablari (P2R) hamda erta nazorat aralashuvi va resolyutsiya mexanizmlari to'liq shakllangan yaxlit tizimni tashkil etadi. O'zbekistonda esa ushbu elementlar endigina joriy etilmoqda: risk profili matritsasi va proporsionallik amaliyotda to'liq qo'llanilmaydi, banklarning ichki kapital va likvidlikni baholash jarayonlari shakllanish bosqichida, erta ogohlantirish va tezkor tuzatuvchi choralar bazasi esa takomillashtirishni talab etadi. Bundan tashqari, davlat banklarining tizimdagi yuqori ulushi (aktivlarning taxminan uchdan ikki qismi) va kredit portfelidagi konsentratsiya tizimli risklarni kuchaytiradi.

O'tkazilgan tahlil asosida O'zbekiston tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari taklif etiladi: birinchidan, SREP'ga o'xshash yagona, risk-asosli baholash metodologiyasini bosqichma-bosqich joriy etish va har bir bank uchun individual kapital talablarini belgilash; ikkinchidan, ICAAP/ILAAP jarayonlarini banklar uchun majburiy talabga aylantirish; uchinchidan, proporsionallik tamoyiliga asoslangan nazorat modelini (SEM) tatbiq etib, nazorat resurslarini tizimli ahamiyatli va yuqori riskli banklarga yo'naltirish; to'rtinchidan, erta ogohlantirish tizimlari (EWS) va erta nazorat aralashuvi (PCA) mexanizmlarini mustahkamlash; beshinchidan, muammoli kreditlarni tan olishni IFRS 9 va EBA talablariga to'liq muvofiqlashtirish hamda muntazam stress-testlarni joriy etish; oltinchidan, CRR3/CRD6 elementlarini milliy me'yoriy bazaga tatbiq etish va 3427-sonli nizomni Yevropa metodologiyasi bilan uyg'unlashtirish; yettinchidan, risk madaniyatini rivojlantirish va nazorat kadrlari malakasini xalqaro standartlar bo'yicha oshirish.

Xulosa qilib aytganda, Yevropa tajribasi risklarni boshqarish samaradorligi alohida ko'rsatkichlar bilan emas, balki yaxlit institutsional tizim — puxta metodologiya, shaffoflik, mustaqillik va yuksak nazorat madaniyatining birligi bilan belgilanishini ko'rsatadi. Ushbu tajribani milliy sharoitga moslab izchil tatbiq etish nafaqat alohida banklarning moliyaviy barqarorligini, balki butun milliy moliya tizimining uzoq muddatli ishonchliligini ta'minlovchi hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi Nizomi (ro'yxat raqami 3427). – Toshkent, 2023.
2. Basel Committee on Banking Supervision (2017) Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. – Basel: BIS.
3. European Banking Authority (2022) Guidelines on Common Procedures and Methodologies for SREP (EBA/GL/2022/03).

4. European Banking Authority (2025) Risk Dashboard. – Paris: EBA.
5. Regulation (EU) 2024/1623 (CRR3) and Directive (EU) 2024/1619 (CRD6). Official Journal of the EU, 19.06.2024.
6. International Monetary Fund (2025) Republic of Uzbekistan: Financial System Stability Assessment. – Washington, D.C.
7. Central Bank of the Republic of Uzbekistan (2023) Risk-Based Supervision Manual for Banks. – Tashkent.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti. – <https://cbu.uz>